

**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**2020- yil
yanvar-noyabr
oylarida
Toshkent
viloyatida
xizmatlar
sohasining
rivojlanishi**

Toshkent - 2020



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

103,7 %

O'sish sur'ati

**15 059,2
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

69,4 %

**Kichik
tadbirkorlikning
ulushi**

**Xizmatlar
sohasi**

61,5 %

**Korxonalar va
tashkilotlar
ulushi**

**5 087,7
ming so'm**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
xizmatlar**

Toshkent viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

**Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi**

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15059,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1913,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida)

1 913,6
mlrd. so'mga

Hajmning
o'sishi

15 059,2
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

103,7 %

O'sish sur'ati




Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



2020- yilning noyabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi joriy yilning yanvar oyiga nisbatan 322,8 mlrd. so'mga o'sdi va 1535,6 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 376,2 mlrd. so'mga o'sgan va 1339,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.


Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



O'tgan yilning mos davri diskret oyi hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yilning XI diskret (noyabr) oyining hajmi 195,9 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019 va 2018- yillarning XI diskret oylari o'rtasidagi farqi 3086,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2020- yil X diskret (oktabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil XI diskret (noyabr) oyining hajmi 57,5 mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning X diskret oyi hajmiga nisbatan, 2019- yilning XI diskret oyi hajmi 782,6 mlrd. so'mga kamaydi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	15 059,2	103,7
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	409,9	132,9
Moliyaviy xizmatlar	2 070,2	131,4
Transport xizmatlari	3 591,0	100,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 429,6	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	489,6	80,0
Savdo xizmatlari	5 200,5	103,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	465,0	92,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	542,5	107,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	244,8	81,2
Ijara xizmatlari	474,7	107,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	287,8	93,5
Shaxsiy xizmatlar	376,3	94,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	520,2	95,5
Boshqa xizmatlar	386,7	82,2

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (31,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (32,9 %), ijara xizmatlari (7,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (7,2 %), transport xizmatlari (0,4 %) va savdo xizmatlarida (3,6 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 34,5 % ni tashkil etdi, bu esa 5200,5 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning mos davrida ularning hajmi 4436,8 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 33,8 % iga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari



Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismiga, aniqrog'i 69,3 % ini tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

8,3 %

69,3 %

22,4 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi 68,6 % ga yetdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 2070,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi 1570,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 13,7 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 11,9 % ni tashkil etgan.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 500,0 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 31,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 146,8 % ga yetgan.



Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,4 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 7,3 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmining 88,4 % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 409,9 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 132,9 % ga yetdi.



Taqqoslash uchun: o'tgan yilning mos davrida ushbu xizmat turi hajmi 303,3 mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 2,3 % iga teng bo'ldi.


O'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 92,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi 89,5 % ga yetdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

440,0
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

542,5
mlrd. so'm

2019- y.
yanvar-
noyabr



2020- y.
yanvar-
noyabr

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 542,5 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etdi.

108,4 %

O'sish sur'atlari, o'tgan
yilga nisbatan, % da

107,2 %

Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar hajmi 440,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'sish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 % da qayd etildi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

564,6

489,6

2019- y.

Yanvar-
noyabr

2020- y.



O'sish
sur'ati, % da

109,1

80,0


2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 75,0 mlrd. so'mga kamaydi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 86,5 % bilan ustunlik qiladi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 77,2 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yanvar-noyabr

2019- y.

2020- y.

276,5
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

244,8
mlrd. so'm

106,7 %

O'tgan yilga
nisbatan
o'sish
sur'ati

81,2 %

2,1 %

Xizmatlar-
ning jami
hajmidagi
ulushi

1,6 %

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Toshkent viloyati^{*)}	15 059,2	103,7	107,8
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	3 168,5	113,7	123,9
Olmaliq	777,4	100,2	105,4
Angren	725,4	100,4	105,4
Bekobod	597,4	102,8	103,6
Ohangaron	370,4	100,9	101,6
Chirchiq	1 051,6	103,3	102,9
Yangiyo'l	487,0	100,7	102,8
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	230,5	100,4	101,8
Ohangaron	265,0	101,9	102,8
Bekobod	307,2	101,6	102,8
Bo'stonliq	726,2	102,7	107,0
Bo'ka	298,1	101,3	102,8
Quyi Chirchiq	203,8	100,9	102,3

^{*)} Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Zangiota	1 130,8	101,8	105,7
Yuqori Chirchiq	573,2	102,6	106,4
Qibray	1 471,7	100,1	109,5
Parkent	481,4	102,2	106,3
Piskent	216,4	100,6	101,9
O'rta Chirchiq	370,1	100,3	105,8
Chinoz	401,1	100,5	100,2
Yangiyo'l	486,5	100,6	104,0
Toshkent	719,4	101,7	104,4

Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Nurafshon shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 645,4 mlrd. so'mga oshdi va 3168,5 mlrd. so'mga yetdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

5 087,7
ming so'm

Hajmning
o'sishi

576,8
ming
so'mga

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5087,7 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019-yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4510,9 ming so'mni tashkil etdi



102,1 %


O'sish
sur'ati

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Nurafshon shahrida 64796,3 ming so'mdan Quyi Chirchiq tumanida 1881,7 ming so'mgacha oralig'ida kuzatiladi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining asosiy ko'rsatkichlari, ming so'm (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Quyi Chirchiq tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**27 998
birlik**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

118,6 %

**4 386
birlikga**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

61,5 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 61,5 % ga, sanoat sohasida -19,0 % ga, qurilish sohasida - 7,8 % ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 11,7 % ga to'g'ri keladi.

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2019-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi- 61,6 % ni, sanoat - 19,7 % ni, qurilish - 7,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 10,9 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (44,0 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,0 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 69,4 % ni tashkil etdi.

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 86,8 % ga to'g'ri keladi.

Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 71-202-86-72

**Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi**